

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFOVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ILMIY ASOSLARI

Xaydarova Mahliyo Mamatovna

Nizomiy nomli TDPU

Tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitishni yaratilishi haqida fikr yuritildi.

Tayanch tushunchalar: Telekonferensaloqa, videotelefon, videotasvir, mul'timediali proyektorlar va monitorlar, modem, kolonka, mikrofon, vebkamera, audio-video axborot, WEB texnologiya, videokonferensiya.

Insoniyat yigirmanchi asr nihoyasida bir turkum muammolarga duch keldikim, ular bevosita axborot telekommunikatsiya sohasidagi jiddiy o'zgarishlar, xususan axborot texnologiyalarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga bog'liq. Ta'lim, ishlab chiqarish va kishilik jamiyatining turli jabhalariga yangi axborot kommunikatsiya vositalari kirib kela boshladi. Internet global komp'yuter tarmog'ini rivojlanishi butun dunò ta'lim tizimini takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Birinchidan, o'quv muassasalarining texnik ta'minotini keskin o'zgarishi, dunèviy axborot resurslarga keng yo'l ochilishi o'qitishning yangi shakl va usullaridan foydalanish zaruratini keltirib chiqardi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta'lim jaraèniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari èrdamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari (o'quv qo'llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarni jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan. Oldindan tasмага muhrlangan videoma'ruzalar talabalarga ma'ruzalarni tinglash va ko'rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o'zaro teskari aloqa orqali o'qitish imkonini beradi.

YUqoridagilarga asoslanib, ta'lim jaraènida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinaètgan ayrim terminlar tavsifi va ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Masofaviy o'qitish – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir.

Masofaviy o'qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta'lim tizimidir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalariga asosida o'quv shart-sharoitlari va o'qituvchi bilan muloqotni ta'minlab berib, o'quvchidan ko'proq mustaqil ravishda shug'ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o'qish jara'eni ta'lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo'lishiga bog'liq emas.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit e'rdamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim kompleksidir. Demak masofaviy o'qitish masofaviy ta'lim kompleksidagi jara'en ekan.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Masofaviy o'qitishning pedagogik texnologiyalari – tanlangan o'qitish konsepsiyasiga asoslangan masofaviy ta'limning o'quv-tarbiyaviy jara'enini ta'minlovchi o'qitish metodi va uslublar majmuasi.

Keys-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, masofaviy ta'limda matnli, audiovizual va mul'timediali (keys) o'quv uslubiy materiallar majmuasi qo'llanishga asoslanadi.

TV-texnologiya – masofaviy o'qitishni tashkil qilishning shunday uslubiki, u talabalarga o'quv-metodik ma'lumotlarni televideniye vositasi e'rdamida yetkazishga xizmat qiladi va tashqi aloqali ixti'oriy interaktiv usullardan biri bilan o'rnatishga asoslanadi.

Masofaviy o'qitishning va masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud.

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi.

Masofaviy o'qitish tizimi uzluksiz ta'lim tizimida kunduzgi, sirtqi, eksternat o'qitish tizimlari qatorida ko'rilishi kerak. Pedagogikaning asosiy tamoyillarini o'zida aks ettiradigan shaxsiy yo'naltirilgan e'ndoshuv dun'e pedagogik jamoalari tomonidan zamonaviy ta'lim tizimlarining barcha shakllari uchun tan olingan. O'qitish markazida o'qitish jara'eni emas, talabaning shaxsiy imkoniyatlari va qobiliyatidan kelib chiqadigan bilish faoliyati, o'rganish turadi. O'qituvchining faoliyati talabalarning mahsuliy faoliyatining tashkil etilishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Binobarin, ta'lim tizimining asosiy maqsadi shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish, axborotlar bilan ishlashni o'rgatishdir.

Masofaviy o'qitishdagi shaxsiy yo'naltirilgan yondoshuv Internet taqdim eta'etgan ajoyib imkoniyatlarga suyangan holda o'quv jara'enining ta'lim darajasini sezilarli oshiradi.

Masofaviy o'qitish jara'enini shunday pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish lozimki, talabalarning quyidagi imkoniyatlari shakllansin:

- aniq ilmiy e'ki amaliy muammolarni yechishga tadbir eta oladigan zaruriy fundamental bilimlarni olish;
- bilish faoliyati jara'enida kelib chiqqan muammolarni do'stlar bilan hal etish;
- qo'yilgan masalalarni yechish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborot manbalari bilan ishlash;
- barcha mavjud muammolarni bartaraf etish, egallangan bilimlarni amali'e'tda qo'llash.
- Internet texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil kuzatishlar olib borish;
- o'z bilim darajalarni, erishilgan yutuqlarini baholash imkoniga ega bo'lish, o'z faoliyatini to'g'rilay olish.

Pedagoglar masofaviy o'qitish kurslarini yaratishda quyidagi talablarni inobatga olishlari kerak:

1) Motivatsiya– o'qitishning zarur qismi sanaladi va o'qitish jaraèni davomida qo'llab-quvvatlanib turilmog'i lozim. Tinglovchi oldiga qo'yilgan aniq maqsad katta ahamiyat kasb etadi. Agar tinglovchi oldiga qo'yilgan vazifalar uning tayèrgarlik darajasiga mos kelmasa motivatsiya keskin kamayadi.

2) O'quv maqsadlarining qo'yilishi. Tinglovchilar undan nima talab etilishini bilishi kerak. Dasturda maqsad va vazifalarning aniq ko'rsatilishi muhim hisoblanadi.

3) O'quv materiallarini qabul qilishga sharoitlar yaratish. Bunday sharoitlarni yaratishda qo'shimcha èrdamchi materiallar (tinglovchilar uchun qo'llanma) qo'l keladi. Dastlabki test sinovlarini o'tkazish ham mumkin.

4) O'quv materiallarini yetkazish – har qanday o'quv masalalarini yechish bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bunda komp'yuter ekraniga chiqariladigan kadrlarni yaratish muhim muammo sanaladi, ma'lum qulay o'qish tamoyilidan foydalanish zarur bo'ladi.

5) Teskari aloqa. Bu mezon tinglovchi uchun katta ahamiyatga ega. Komp'yuter teskari aloqani amalga oshirishda èrdam beradi.

6) Baholash. Tinglovchilar komp'yuter bilan ishlash jaraènida o'quv materiallarini qanday o'zlashtiraètganlarini bilib borishlari kerak. Ammo yakuniy baholashga qadar noto'g'ri javoblarni ko'rsatmaslik maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Tinglovchilarni kam qolgan topshiriqlar soni ko'p bajarilgan topshiriqlar soniga nisbatan ko'proq faollashtiradi. Masofaviy kurslarda «tinglovchi-o'qituvchi-tinglovchi» muloqotining tashkil etilishi juda muhim hisoblanadi. Buning uchun tinglovchilar faoliyatini hamkorlikda o'qish èki loyihalar metodlari, bahslar asosida tashkil qilish lozim.

Masofaviy o'qitishga mo'ljallangan o'quv materiallarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari. Endi o'quv materiallarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaylik. To'laqonli onlayn o'qitish loyihasi ko'rsatma, axborot, nazorat, kommunikativ va boshqarish bloklaridan iborat bo'ladi.

Masofaviy o'qitish kursi faqatgina mashg'ulotlar matnigina emas, balki, tarmoqda zarur axborotlarni qidirish, ma'lumotlar almashish, ma'lumotlar bazasiga murojaat etish, INTERNET tizimidagi davriy axborot manbalaridan foydalanishdir. Masofaviy o'qitish o'zining xususiyatiga ko'ra individual o'qish bo'libgina qolmay, o'qituvchi va boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini ham rivojlantirishi zarur.

Masofaviy o'qitishning sifati o'quv kurslarini tashkil etilishiga bog'liq. Agar kurs o'qitish uchun, ya'ni tinglovchi va o'qituvchi muloqoti uchun yaratilgan bo'lsa, u holda bunday kursni tashkil etish talablari, o'quv materiallarini tanlash va ularning tuzilmasi muloqot xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lishi kerak. Agar kurs mustaqil ta'lim uchun yaratilgan bo'lsa (bunday kurslar INTERNET tizimida juda ko'p), u holda o'quv materiallarini tanlash, kurslar tuzilmasi va tashkil etilishi boshqacha bo'ladi. Kurslar telekommunikatsiya tarmog'i sharoitidagi tinglovchi va o'qituvchi muloqotining xususiyatlari asosidagi talablardan kelib chiqib tashkil etilishi lozim. Bunda o'rgatuvchi kurslar yaratishning umumdidaktik tamoyillar, axborotlarni qabul qilish bilan bog'liq psixologik xususiyatlar, ergonomik talablar, ikkinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlarining dasturiy vositalari yaratgan imkoniyatlardan maksimal foydalanish hisobga olinishi zarur.

Ta'lim muassasasining axborotlashgan muhitini yaratish.

Oliy ta'lim muassasalarining barcha komp'yuter sinflarini internetga ulash va shu asnoda internetda mavjud ma'lumotlardan, shu jumladan elektron o'quv adabiètlaridan foydalanish imkoni yo'q vaziyatda lokal tarmoqda ishlovchi oliy ta'lim muassasasining internet-fazosini yaratish mumkin. Yaratilajak internet fazo fanlar bo'yicha didaktik

portfel, o'qituvchilarning individual portfeli kabi bir turkum ma'lumotlardan tashkil topadi.

Oliy ta'lim muasssalarida yangi axborotlashgan muhitga asoslangan o'quv tizimini, Internet – oliy ta'lim muassasasi fazosini joriy qilish, unga elektron o'quv adabiётlarini joylashtirish hamda masofaviy ta'lim shakl va metodlarining ilmiy-nazariy asoslari ba'ëniga to'xtalamiz.

Talabalarning fundamental tayërgarlik darajasi sifatini oshirishga yo'naltirilgan o'qitishning yangi texnologiyalarini rivojlanishi tez o'zgaraётgan axborotlashgan jamiyatda zamonaviy oliy ta'lim muassasasi modernizatsiyasida ham asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Yaqindagina komp'yuter texnologiyalaridan asosan tashkilotlar, banklar èki ilmiy-tekshirish institutlarida foydalanish mumkin degan fikr hukmron edi. "Axborotlashgan ta'lim tizimi" tushunchasiga ayni vaqtda turli qarashlar va takliflar mavjud. Unga internet ta'lim federatsiyasi materiallariga asoslanib quyidagi ta'rifni berish mumkin.

Ta'lim muassasasidagi axborotlashgan muhit - ta'lim jara'ëni samaradorligini oshirishga qaratilgan axborot texnologiyalarining tizimi integratsiyasini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan komponentlar majmuasidir. Axborotlashgan muhitni tashkil etuvchi barcha komponentlar uning butunligini kafolatlashi lozim, ya'ni u shunday yaxlit tizimki, uning ayrim qismlari nafaqat bir-birini to'ldiradi, shu bilan bir qatorda tashkil etuvchilarsiz normal ish yuritib bo'lmaydi.

Ko'pchilikning fikriga ko'ra, ta'limda axborot texnologiyalarini foydalanish sohasida, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish eng istiqbolli yo'nalishlardan sanaladi. Ma'lumki, o'quv materiallarini turli tavsiya shakllari, jumladan ba'zan o'rganiladigan hodisani turli nuqtai nazardan qaraydigan darsliklar, yangi mavzularni o'zlashtirish jara'ënda vujudga keladigan savollarga ixtiëriy vaqtda to'la javob olish imkonini beradigan lug'aviy "spravochnik" tizimi, tabiiy fanlarni o'rganishda demonstratsion eksperimentlar va laboratoriya mashg'ulotlari, talabalar tomonidan ixtiëriy o'quv fanini mustaqil o'rganishda kerak bo'ladigan ehtiëjlardan sanaladi. Mustaqil o'qishda, materiallarni o'zlashtirishda yuqorida eslatilgan elementlardan foydalanish tartibi, har bir talabaning individual xususiyatlari tomonidan belgilanadi

Foydalanilgan adabiётlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi «Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni.
2. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli «Komp'yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
3. A.Parpiyev, A.Maraximov, R.Hamdami, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriëti. -T.: 2008, 196 b.
4. Abdukadirov, Abdukaxxor Abduvakilevich. Masofali ukitish nazariyasi va amaliëti. monografiya / A. A. Abdukadirov, A. X. Pardayev; red. M. Sodikova. - T. : Uzbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriëti, 2009. - 145 s. -